



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

INGLIZ TILIDA “BBC NEWS” YANGILIKLAR MATNIDAGI LEKSIK BIRLIKLARNING SEMANTIK VA KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARI

Ahmedov Davronbek G‘ayratbek o‘g‘li

*Andijon davlat chet tillari instituti
mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot ingliz tilida BBC News yangiliklari matnlarida qo‘llanilgan leksik birliklar, neologizmlar, terminologik birliklar, frazeologizmlar va qisqartmalarning semantik mazmuni hamda kommunikativ funksiyalarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Semantik tahlil orqali leksik birliklarning ma‘no qatlamlari va konnotativ xususiyatlari ochib berilsa, kommunikativ tahlil asosida ularning funksionalligi, axborotni ixcham va ta‘sirchan tarzda yetkazish, kabilar yoritiladi.

Kalit so‘zlar. BBC news, leksik birlik, yangiliklar, neologism, terminologik birliklar, frazeologizm, qisqartmalar (abbreviation), semantic ma‘no, kommunikativ vazifa.

СЕМАНТИЧЕСКИЕ И КОММУНИКАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В НОВОСТНЫХ ТЕКСТАХ «BBC NEWS» НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Ахмедов Давронбек Гайратбек угли

*независимый соискатель,
Андижанский государственный институт иностранных языков*

Аннотация

Настоящее исследование посвящено анализу семантического содержания и коммуникативных функций лексических единиц, используемых в англоязычных новостных текстах BBC News, включая неологизмы, терминологические единицы, фразеологизмы и аббревиатуры. Семантический анализ позволяет выявить смысловые слои лексем и их коннотативные характеристики, тогда как коммуникативный анализ раскрывает их функциональность, в частности способность обеспечивать компактную и воздействующую подачу информации в новостном дискурсе.

Ключевые слова: BBC News, лексическая единица, новости, неологизм, терминологические единицы, фразеологизм, аббревиатуры, семантика, коммуникативная функция.

SEMANTIC AND COMMUNICATIVE FEATURES OF LEXICAL UNITS IN ENGLISH-LANGUAGE “BBC NEWS” TEXTS

Ahmedov Davronbek G‘ayratbek o‘g‘li

Independent Researcher, Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract

This study focuses on analyzing the semantic content and communicative functions of lexical units used in English-language BBC News texts, including neologisms, terminological units, phraseological expressions, and abbreviations. Through semantic analysis, the research reveals the layers of meaning and connotative features of lexical items, while communicative analysis highlights their functional role in delivering information in a concise and persuasive manner within news discourse.

Keywords: BBC News, lexical unit, news discourse, neologism, terminological units, phraseology, abbreviations, semantics, communicative function.

Zamonaviy ommaviy axborot vositalari, xususan, xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi axborot agentliklari va telekanallar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni yoritishda tilning turli leksik birliklardan foydalanadi. Ushbu jarayonda til axborot uzatish bilan birgalikda, muayyan ideologik, pragmatik va kommunikativ vazifalarni bajaruvchi tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ingliz tilida faoliyat yurituvchi BBC News axborot xizmati yangilik matnlari global auditoriyaga mo'ljallangani bois, unda tanlangan leksik birliklarning semantik aniqligi va kommunikativ samaradorligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda siyosiy, harbiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarning tezkor rivojlanishi til tizimida yangi leksik birliklarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, *neologizmlar, terminologik birliklar, frazeologizmlar hamda qisqartmalar (abbreviations)* zamonaviy media-diskursning ajralmas komponentlariga aylangan. Ushbu birliklar orqali axborot ixcham, tushunarli va ta'sirchan tarzda yetkaziladi, shuning uchun ham BBC News yangiliklari matnlarida qo'llanilayotgan leksik birliklarni semantik va kommunikativ jihatdan o'rganish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Neologizmlar media-diskursda ijtimoiy o'zgarishlar va yangi tushunchalarning til orqali aks etish shaklini namoyon qiladi. BBC News matnlarida uchraydigan neologizmlar ko'pincha siyosiy islohotlar, harbiy strategiyalar, texnologik yangiliklar va ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, ular voqelikni yangicha nomlash, uni asoslash va muayyan kontekstda talqin etishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, neologizmlarning semantik tuzilishi va kommunikativ vazifalarini tahlil qilish media-diskursning mazmuniy qatlamlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Terminologik birliklar esa BBC News yangiliklarida axborotning rasmiyligi, aniqligi va ishonchligini ta'minlovchi muhim lingvistik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Siyosiy, harbiy va iqtisodiy terminlar voqea-hodisalarni professional va institutsional jihatlarini yoritishga xizmat qiladi.

Frazeologik birliklar BBC News matnlarida axborotning ta'sirchanligini oshiruvchi stilistik vosita sifatida qo'llaniladi. Frazeologizmlar ko'pincha murakkab siyosiy yoki ijtimoiy hodisalarni sodda va tushunarli obrazlar orqali talqin etishga xizmat qilib, matnning o'quvchi uchun qabul qilinishini osonlashtiradi.

Qisqartmalar esa zamonaviy yangiliklar tilining ajralmas belgilaridan biri bo'lib, ular axborotni ixcham va tezkor tarzda yetkazish imkonini beradi. BBC News matnlarida uchraydigan qisqartmalar, xususan, harbiy, siyosiy va institutsional nomlar bilan bog'liq abbreviatsiyalar, matnning rasmiy va professional ohangini kuchaytiradi.

METODLAR: tavsifiy, semantik tahlil, kommunikativ tahlil va diskursiv tahlil.

MUHOKAMA. Ingliz tilidagi BBC news yangiliklar matnini semantic va kommunikativ jihatlarini tahlil qilish uchun quyidagi siyosiy mavzusidagi yangilik matni tanlab olindi:

UK to offer military 'gap year' to boost recruitment

A "gap year" scheme to give school and college leavers a taste of the Army, Royal Navy or RAF without a long-term commitment, is to be launched by the government.

The course is aimed at under-25s and is part of efforts to solve long-term recruitment and retention problems in the armed forces.

Applications to be part of the first of 150 recruits open in the spring, with plans for that number to grow to 1,000 young people a year. The programme will be paid but officials have yet to announce a salary.

Defence Secretary John Healey said the scheme would offer young people "incredible skills and training". However, the Conservatives criticised the small number of recruits.

	Leksik birliklar nomi	BBC news yangiliklar matnida keltirilgan leksik birliklar
1	<i>Neologizmlar</i>	<i>Gap year scheme Long-term recruitment Paid programme</i>
2	<i>Terminologik birliklar</i>	<i>armed forces recruitment retention recruits applications programme/scheme/course</i>
33	<i>Frazeologizmlar</i>	<i>give a taste of smth</i>
4	<i>Qisqartmalar</i>	<i>RAF (Royal Air Force) under 25s</i>

1. Neologizmlarning semantik va kommunikativ xususiyatlari.

- a) **“Gap year scheme”** birikmasi lug‘aviy ma’noda o‘zbek tilida “harbiy xizmatga oid yangi ko‘rinishdagi “bo‘sh yil” dasturi” deb tarjima qilinadi. Mazkur leksik birlik zamonaviy ingliz tilida mehnat va ta’lim diskurslarida qo‘llaniladigan neologizm bo‘lib, u an’anaviy harbiy xizmat tushunchasini yangicha ma’noda talqin etishdir. Strukturaviy jihatdan bu neologizm ikki komponentdan iborat: gap year and scheme. Dastlabki gap year murakkab komponent bo‘lib, u ham o‘z navbatida, ikki leksemdan tashkil topgan: gap va year. Semantik ma’noda esa, mazkur birikma harbiy xizmatni majburiy va qat’iy nazoratga olingan jarayon sifatida emas, vaqtinchalik, sinov shaklidagi imkoniyat deb baholashni anglatadi.

Ma’lumki, “harbiy xizmat” tushunchasi insonlar ongida salbiy konnotatsiyaga ham egadir, ya’ni bu davrda xavfli vaziyatlar sodir bo‘lishi, doimiy qat’iy tizimlashtirilgan rejimda yashash, oila a’zolaridan uzoqda bo‘lish, jismoniy va psixologik qiyinchiliklarda duch kelish kabi holatlar ham kuzatilishi natijasida shaxslar ongida harbiy xizmatga nisbatan salbiy munosabat paydo bo‘ladi. kommunikativ jihatdan esa, “Gap year” neologizmi salbiy yoki xavf bilan bog‘liq bo‘lgan konnotatsiyalarni kamaytirib, harbiy xizmat jarayonini yoshlar uchun xavfsiz, tajriba maydoni, jismoniy va aqliy rivojlanish davri sifatida tushunishga yordam beradi.

- b) **Long-term recruitment** birikmasi lug‘aviy ma’noda uzoq vaqtga kadrlarni jalb qilish bo‘lib, asosan, ish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan diskurslarda qo‘llaniladi. Mazkur neologizm semantik jihatdan harbiy institutlar duch kelayotgan kadrlar bilan bog‘liq muammolarni individual, subyektiv yoki vaqtinchalik hodisa emasligi, uzoq vaqtdan buyon davom etayotgan, yuqori mansabdorlarni e’tibori qaratilgan, yechim topilishi zarur bo‘lgan hodisa ekanligi anglashiladi.

Yuqoridagi yangilik matnidan anglashiladiki, “Gap year” dasturi siyosiy kuchga ega, ratsional va zaruriy choralar yuzasidan paydo bo‘lgan, uning joriy etilish sabablaridan biri esa uzoq muddatli harbiy kadrlarni ishga jalb qilishdir. Dasturning siyosiy funksiyaga ega ekanligi zahirida “long term recruitment” neologizmining kommunikativ xususiyatdi yotadi, ya’ni

harbiy sohada kadrlar yetishmovchiligi vaqtinchalik yoki favqulotda holat emas, u uzoq davom etib kelayotgan, barqaror jarayon sifatida talqin etiladi. Natijada, mazkur muammo davlat siyosati darajasida hal etilishi lozim bo'lgan strategik vazifa hisoblanadi.

d) **Paid programme** lug'aviy ma'noda o'zbek tiliga "haq to'lanadigan dastur" deb tarjima qilinadi. U zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy diskurs doirasida paydo bo'lgan bo'lib, harbiy xizmatni mehnat bozori bilan bog'liqligini ko'rsatadi. "Paid" komponenti semantik jihatdan moddiy rag'bat mavjud ekanligini bildiradi, ya'ni, harbiy xizmatchilarning vatanparvarligi, burchiga sadoqatliligi va fidoiyligi kabi abstract xususiyatlar asosiy rag'bat sifatida tushunilib kelingan bo'lsa, endilikda mazkur neologizm orqali iqtisodiy manfaat ham qondirilishi mumkin ekanligi anglashiladi.

"Paid programme" neologizmi moddiy rag'batlantiruvchi va motivatsion xarakterga ega ekanligi uning kommunikativ xususiyatlarini ko'rsatadi. Endilikda, harbiy xizmat majburiy, bepul dastur emas, iqtisodiy jihatdan foydali imkoniyat sifatida talqin etiladi.

2) Terminologik birliklarning semantic va kommunikativ jihatlari

a) **Armed forces** birkmasi o'zbek tilida qurolli kuchlar ma'nosini anglatadi. Mazkur terminologik birlik semantik jihatdan umumlashtiruvchi ma'noga egadir, bunda Buyuk Britaniya harbiy kuchlarining barcha turlari, armiya, harbiy-dengiz va harbiy havo kuchlari birgalikda bitta leksik birlik orqali ifodalanadi.

Kommunikativ jihatdan esa, "armed forces" termini harbiy xizmatni tor doiradagi kasbiy faoliyat turi emas, balki davlat xavfsizligi, siyosiy barqarorlik va milliy manfaatlar bilan bog'liq bo'lgan strategik institut deb baholanadi.

b) **Recruitment termini** semantik jihatdan tashkilot yoki institut tomonidan yangi shaxslarni ishga jalb etish tizimi hisoblanadi. Harbiy kontekstda ushbu termin inson resurslarini ma'lum kriteriyalar asosida tanlash, saralash va ishga qabul qilish kabi bosqichlardan iborat rejalashtirilgan, nazoratga olingan strategik jarayonni ifodalaydi.

Kommunikativ jihatdan recruitment terminining muhim jihati shuki, u mavjud muammoni emotsional holatni hisobga olmagan holda, iqtisodiy va siyosiy mezonlar asosida ko'rsatadi. Bunda harbiy xizmatda kadrlarning yetishmasligi holatiga insonlarning shaxsiy muammolari emas, jamiyatda sodir bo'layotgan iqtisodiy va siyosiy jarayonlar sabab deb ko'rsatadi,

d) **Recruits** termini semantik jihatdan harbiy xizmatga endigina qabul qilingan shaxslarni anglatuvchi birlik hisoblanadi. Ushbu terminning qo'llanilishi harbiy xizmatga kirayotgan shaxslarni "yoshlar" yoki "fuqarolar" kabi umumiy ijtimoiy kategoriyalardan ajratib, ularni xarbiy maqomga ega subyektlar qatoriga kiritadi. Bu jarayonda shaxslar ijtimoiy subyekt maqomidan harbiy institutning tarkibiy qismiga aylantiriladi.

Kommunikativ jihatdan "recruits" terminini miqdoriy ko'rsatkichlar bilan birgalikda qo'llanishi (matnda 150 nafar va kelajakda 1 000 nafarga yetkazilishi rejalashtirilgan ko'rsatkichlar) harbiy siyosatni aniq, o'lchanadigan va rejalashtirilgan jarayon sifatida taqdim etadi.

e) **Applications** termini semantik jihatdan muayyan dastur yoki institutda ishtirok etish uchun shaxs tomonidan ixtiyoriy asosda topshiriladigan rasmiy murojaatlarni anglatadi. Ushbu leksik birlik xizmatga jalb etish jarayonining majburiy yoki avtomatik mexanizmga asoslanmaganini, huquqiy jihatdan belgilangan, standartlashtirilgan va tanlovga asoslangan tizim mavjudligini bildiradi.

Kommunikativ jihatdan "applications" terminining qo'llanilishi "gap year" dasturining demokratik, ochiq va inklyuziv ekanligini ta'kidlaydi. Ushbu birlik orqali hukumat harbiy xizmatni majburiy safarbarlik yoki avtoritar chaqiriq sifatida emas, fuqarolarga taqdim etilayotgan imkoniyat sifatida diskursiv ravishda shakllantiradi. Bu esa harbiy siyosatni

zamonaviy liberal-demokratik qadriyatlar bilan moslashtirishga yordam beradi.

f) Programme, scheme va course terminlari semantik jihatdan o‘zaro yaqin bo‘lib, barchasi rejalashtirilgan va muayyan maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni anglatadi. Biroq ularning har biri harbiy xizmatni turli kontekstual jarayonlarida qo‘llaniladi. Semantik jihatdan, programme termini keng qamrovli, uzoq muddatli va davlat siyosati darajasida rejalashtirilgan tashabbusni ifodalaydi. Ushbu birlik strategik xarakterga ega bo‘lib, hukumat tomonidan ishlab chiqilgan va milliy miqyosda amalga oshiriladigan kompleks chora-tadbirlar majmuasini anglatadi. Scheme termini esa mazkur umumiy dastur doirasida amalga oshiriladigan aniq siyosiy mexanizmni anglatadi. Semantik jihatdan u “programme”ga nisbatan torroq bo‘lib, muayyan maqsadli guruhga yo‘naltirilgan, sinov yoki pilot xarakterga ega tashabbusni bildiradi. Course termini esa harbiy xizmatning ta’limiy va tayyorgarlik jihatini ifodalaydi. Ushbu birlik o‘quv jarayoni, bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, malaka oshirish kabi tushunchalar bilan bog‘lab, harbiy xizmatni pedagogik va rivojlantiruvchi faoliyat deb ko‘rsatadi.

Kommunikativ jihatdan mazkur terminlarning birgalikda qo‘llanilishi harbiy xizmatchilarga ta’lim, tajriba orttirish va o‘zini rivojlantirish imkoniyatlarini taklif etadi.

3) Frazelogizmlarning semantik va kommunikativ xususiyatlari

Give ... a taste of (something) frazeologik birligi ingliz tilida keng qo‘llaniladigan barqaror ifoda bo‘lib, semantik jihatdan biror faoliyat yoki tajribaning to‘liq emas, cheklangan va sinov ko‘rinishini taqdim etish ma’nosini anglatadi. Semantik jihatdan, “taste” komponenti sezgi va tajriba bilan bog‘liq bo‘lib, faoliyatni bevosita xavf va mas’uliyatlardan xoli shaklda anglashni bildiradi, bunda harbiy xizmat cheklangan hajmda “tatib ko‘riladigan” faoliyat sifatida tasvirlanadi.

Kommunikativ jihatdan “give ... a taste of” frazeologizmining qo‘llanilishi harbiy xizmat bilan bog‘liq uzoq muddatli majburiyat, intizom va xavf kabi salbiy konnotatsiyalardan chekinib, uni qisqa muddatli, ixtiyoriy tajriba deb ko‘rsatadi. Shuningdek, mazkur frazeologik birlik kommunikativ jihatdan rag‘batlantiruvchi va qiziqitiruvchi funksiyani ham bajaradi, ya’ni harbiy xizmat “tatib ko‘rish mumkin bo‘lgan imkoniyat” ekanligi anglashiladi.

4) Qisqartmalarning semantic va kommunikativ xususiyatlari


a) RAF qisqartmasi **Royal Air Force** (Qirollik harbiy-havo kuchlari) nomining qisqartirilgan shakli bo‘lib, semantik jihatdan Buyuk Britaniya qurolli kuchlarining muhim tarkibiy qismi hisoblangan tuzilmani anglatadi. Semantik jihatdan, “RAF” qisqartmasining qo‘llanilishi harbiy tuzilmani rasmiy, tarixiy va nufuzli institut ekanligini bildiradi. To‘liq nomning qisqartirilgan shaklda berilishi mazkur institutning jamiyat ongida allaqachon mustahkam ma’noga egaligini ko‘rsatadi.

Kommunikativ jihatdan “RAF” qisqartmasining ishlatilishi matnning rasmiy-deklarativ shaklda ekanligini ko‘rsatib, ixchamlilik va aniqlikka mezonlari asosida ortiqcha izohlarsiz ma’lumot yetkazilgan.

b) Under-25s qisqartmasi semantik jihatdan 25 yoshdan kichik shaxslarni ifodalovchi demografik kategoriya hisoblanadi. Semantik jihatdan, “under-25s” qisqartmasining qo‘llanilishi yoshni biologik yoki ijtimoiy kategoriya deb baholash bilan bir qatorda, uni siyosiy va boshqaruv qarorlari uchun muhim bo‘lgan statistik mezon deb talqin etadi.

Kommunikativ jihatdan “under-25s” qisqartmasi adresatni aniq belgilash funksiyasini bajaradi. U orqali xabar umumiy auditoriyaga emas, balki aniq yosh guruhiga qaratilganligi ko‘rsatiladi.

NATIJALAR.



Diagrammadan ko'rinadiki, **terminologik birliklar eng katta foizni** tashkil etadi. Bu holat BBC News yangiliklari matnlarining rasmiy-axboriy xarakterga ega ekanini hamda siyosiy, harbiy va ijtimoiy jarayonlarni aniq va professional terminlar orqali yoritishga intilishini ko'rsatadi. Terminlarning ko'p qo'llanilishi axborotning aniqligi va ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Neologizmlar ikkinchi o'rinda bo'lib, bu zamonaviy voqeliklar, yangi siyosiy tashabbuslar va ijtimoiy jarayonlarning til orqali ifodalanishini namoyon etadi. Neologizmlarning mavjudligi BBC News matnlarining zamonaviylik va yangilikka yo'naltirilganligini tasdiqlaydi.

Qisqartmalar nisbatan sezilarli ulushni egallab, axborotni ixcham va tezkor yetkazish vazifasini bajaradi. Ular matnning rasmiyligini kuchaytirib, institutsional va professional diskursni shakllantiradi.

Frazelogizmlar esa eng kam ulushni tashkil etadi. Bu holat yangiliklar janriga xos bo'lib, unda obrazlilikdan ko'ra aniqlik va neytrallik ustuvor ekanini ko'rsatadi. Shunga qaramay, frazeologik birliklar ayrim holatlarda axborotning ta'sirchanligini oshirish uchun qo'llaniladi.

XULOSA. Mazkur tadqiqot ingliz tilida BBC News yangiliklari matnlarida qo'llanilgan leksik birliklarning, neologizmlar, terminologik birliklar, frazeologizmlar va qisqartmalarning semantik mazmuni hamda kommunikativ xususiyatlarini aniqlashga qaratildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, BBC News yangiliklari tili zamonaviy media-diskurs talablariga mos ravishda shakllangan bo'lib, unda axborotni aniq, ixcham va auditoriya uchun tushunarli tarzda yetkazishga xizmat qiluvchi leksik vositalar ustuvorlik kasb etadi. Umuman olganda, BBC News yangiliklari matnlarida qo'llanilgan leksik birliklar nominative, kommunikativ va diskursiv funksiyalarni amalga oshiradi. vazifani bajaradi, balki muhim Ular orqali voqelik ratsional, asosli va maqbul tarzda talqin etiladi hamda auditoriya ongida muayyan ijtimoiy-siyosiy mazmun shakllantiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Allan B. The Language of News Media. – Oxford: Blackwell Publishers, 1991. – P. 37-39.
2. Bednarek, M. Language and Television Series. A Linguistic Approach to TV Dialogue. – Cambridge: CUP, 2018. – 4-10 b.
3. Berger, A. Media research techniques. – Newbury Park, CA: Sage Publications,

1991. – 345 p.

4. Boboyeva A. Gazeta publitsistikasi // O‘zbek tili va adabiyoti. № 2. – Toshkent, 1986.

5. Cruse D.A. Meaning in Language: An Introduction to Semantics and Pragmatics. – Oxford: Oxford University Press, 2004. – P. 78-81.

6. Crystal D. Language and the Internet. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 256 p.

7. Curran, J. Media and power. – London: Routledge, 2002. – 320 p.

8. Dobrosklonskaya T. G. Вопросы изучения медиа текстов. – М: МАКС press, 2000. – 250 b.

9. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish (Darslik) – Toshkent: Yangi asr matbuoti, 2009. – B. 79.

10. G‘apporov M., Qosimova R. Ingliz tili grammatikasi (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Turon Iqbol, 2010. – B.75.